

MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANIB MUTOLAA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Xudayorova Madina

madinaxudayorova926@gmail.com

NamDPI o'zbek tili va adabiyoti magistranti

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy multimedia vositalaridan foydalanish orqali akademik litsey o'quvchilarida mutolaa madaniyatini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Maqolada multimedia texnologiyalarining mutolaa jarayoniga ta'siri, elektron kitoblar, audio va video materiallar, interaktiv platformalar hamda raqamli resurslardan pedagogik maqsadlarda foydalanishning samarali yo'llari tahlil qilingan. Bundan tashqari, O'zbekistondagi zamonaviy ta'lim muassasalarida multimedia vositalarini joriy etish tajribasi va uning natijalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: multimedia, mutolaa madaniyati, raqamli ta'lim, elektron resurslar, interaktiv o'qish, pedagogik texnologiya, kitobxonlik madaniyati.

DEVELOPMENT OF READING CULTURE USING MULTIMEDIA TOOLS

Abstract: this article considers the issues of developing a reading culture in academic lyceum students through the use of modern multimedia tools. The article analyzes the impact of multimedia technologies on the reading process, effective ways to use electronic books, audio and video materials, interactive platforms and digital resources for pedagogical purposes. In addition, the experience of introducing multimedia tools in modern educational institutions in Uzbekistan and its results are highlighted.

Keywords: multimedia, reading culture, digital education, electronic resources, interactive reading, pedagogical technology, reading culture.

Kirish

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal rivojlanib bormoqda hamda barcha sohalarga kirib kelmoqda. O'zgarishlardan ta'lim sohasi ham chetda qolgani yo'q. Shu jumladan, mutolaa madaniyati ham o'zgarib bormoqda. Hozirda an'anaviy kitoblar o'rnini audio va elektron kitoblar hamda multimediali platformalar egallab kelmoqda. Jamiyatimiz taraqqiy etayotgan davrda mutolaa madaniyatini rivojlantirish uchun bir qator multimedia vositalaridan foydalanish zarurati o'qituvchilardan talab etilmoqda.

O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar doirasida maktab va oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, o'quv jarayoniga raqamli resurslarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. 2017–2021 yillarda qabul qilingan "Ta'lim va fan sohasidagi islohotlar" dasturi hamda 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham bu masalaga alohida e'tibor qaratilgan.

Asosiy qism

1. Multimedia tushunchasi va ta'limdagi ahamiyati

Multimedia (lot. multi — ko'p, media — vosita) — bu matn, tovush, grafika, animatsiya va video kabi turli xil axborot turlarini birlashtiradigan texnologiyadir. Ta'limda multimedia vositalaridan foydalanish XX asr oxirida keng tarqala boshlagan bo'lsa-da, XXI asrda internet va gadjetlarning rivojlanishi bilan u butunlay yangi bosqichga ko'tarildi.

Amerikalik pedagog Edgar Dalening "Tajriba konusi" nazariyasiga ko'ra, odamlar o'qiganlarining 10%, eshitganlarining 20%, ko'rganlarining 30%, ko'rib va eshitganlarining esa 50%ini eslab qoladi. Shu asosda multimedia vositalari bir vaqtning o'zida bir nechta hissiy kanallar orqali ma'lumot yetkazish imkonini beradi, bu esa o'quv materiallarini yaxshiroq o'zlashtirishga olib keladi. Ralf Mayer esa multimedia o'qitishning kognitiv nazariyasida ikkita asosiy kanalning — vizual va audial kanallarning bir vaqtda ishlatilishi ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishini isbotlagan. Uning tadqiqotlari ko'rsatishicha, faqat matn yoki faqat rasmdan ko'ra, matn va rasmni birga qo'llash o'zlashtirish darajasini 65–80% ga oshirishi mumkin.

Multimedia vositalarining ta'lim jarayonidagi ahamiyati ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi, masofaviy ta'limni samarali tashkil etishga xizmat qiladi,

har bir o'quvchining qobiliyatiga mos ta'lim tashkil etilishi mumkin , axborotni bir necha sezgi a'zolari orqali qabul qiladi va natijada esda uzoq saqlash imkonini beradi.

2. Mutolaa madaniyatini rivojlantirishda multimedia vositalarining turlari

Bulardan birinchisi elektron kitoblar bo'lib, an'anaviy kitoblarning raqamli versiyalari hisoblanadi. Ular kompyuter, planshet, telefon yoki maxsus qurilmalarda o'qilishi mumkin. Elektron kitoblarning asosiy afzalligi keng hajmli kitoblarni ham qo'lda olib yurish imkoniyatini beradi hamda izoh yoki belgi qo'yish qulayligi , qidirish funksiyasi mavjudligi bilan ajralib turadi. O'zbekistonda raqamli kutubxonalar tobora rivojlanib bormoqda. Ziyonet.uz, E-kutubxona.uz kabi platformalar millionlab sahifali o'zbek va jahon adabiyotini foydalanuvchilariga bepul taqdim etmoqda. Bundan tashqari, O'zbekiston milliy universiteti, Toshkent davlat pedagogika universitetida ham elektron kutubxona platformalari joriy etilgan. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, an'anaviy kitob o'quvchilarga nisbatan elektron kitob o'quvchilari ko'proq kitob o'qiydi. Bu ko'rsatkich elektron formatning o'qish faolligini oshirishdagi rolini namoyon etadi. Ikkinchisi audio kitoblar bo'lib, zamonaviy mutolaa madaniyatining muhim qismiga aylandi. Yo'lda yoki uy ishlari bilan band bo'lgan paytda ham kitob tinglash o'quvchilar o'rtasida katta qiziqish uyg'otmoqda. Yurtimizda "Kitob.uz" , "Mutolaa" platformalari va bir qator telegram kanallarida audio formatdagi o'zbek hamda jahon adabiyoti namunalari joylashtirib borilmoqda va bu o'quvchilarda vaqtdan unumli foydalanishiga olib kelmoqda.

Video va adabiy filmlar ham mutolaa madaniyatini rivojlantirishning kuchli vositasi hisoblanadi. Masalan, Abdulla Qodiriy romanining adabiy filmini ko'rgan o'quvchi ko'pincha asar bilan yanada chuqurroq tanishish istagi bilan kitobga murojaat qiladi. O'qituvchi darsda filmdan parcha ko'rsatgach, o'quvchilarni kitobni o'qishga undashi mumkin.

Adabiyot va kitoblar haqida maxsus podkastlar, mualliflar bilan suhbatlar, kitob tahlillariga bag'ishlangan suhbatlar o'quvchilarda adabiy kitobga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Zamonaviy ta'lim platformalari o'quvchilarga mutolaa jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Moodle, Google Classroom, Edmodo kabi platformalar orqali o'qituvchi o'quvchilarga kitob parchalari,

topshiriqlar, testlar, muhokama forumlarini taqdim etishi mumkin. O'zbekistonda esa "O'qish daftari" va "Kitobxon" kabi mahalliy ilovalar ishlab chiqilmoqda. Gamification usuli ham mutolaa madaniyatini rivojlantirishda keng qo'llanilmoqda. O'qilgan kitoblar uchun ball to'plash, do'stlar bilan raqobat, yangi darajaga o'tish kabi o'yin elementlari o'quvchilarni ko'proq kitob o'qishga undaydi.

3. Multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari

Multimedia vositalari o'quvchilarning turli darajadagi qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta'limni individuallashtirish imkonini beradi. Kuchli o'quvchilar qo'shimcha murakkab materiallarni mustaqil o'zlashtirsa, zaif o'quvchilar uchun sodda tushuntirishlar, animatsiyalar va ko'rgazmali materiallar taqdim etilishi mumkin. Bu yondashuv an'anaviy sinfda amaliy jihatdan amalga oshirib bo'lmaydigan darajada individual yondashuv imkonini yaratadi. Adaptiv o'qitish tizimlari o'quvchining bilim darajasini real vaqtda baholab, unga mos matnlar va mashqlar taklif qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, multimedia elementlari bilan

boyitilgan o'quv materiallari o'quvchilarning motivatsiyasini 40–60% ga oshiradi. Animatsiyalar, interaktiv testlar, vizual infografikalar matnni jonli va qiziqarli qilib, o'quvchida tadqiqotchilik ruhini uyg'otadi. Ayniqsa, yoshlar uchun bu muhim omil hisoblanadi, chunki ular raqamli muhitda o'sib, yangi avlodga mansub. O'qituvchi darsda multimedia vositalaridan foydalanib, avval qiziqish uyg'otishi, so'ng chuqur o'qishga yo'naltirishi mumkin. Masalan, Cho'lpon hayoti haqidagi qisqa video ko'rsatilgach, uning asarlari o'qishga bo'lgan qiziqish bir necha barobar ortadi. Bu pedagogik texnika "Flipped Classroom" metodologiyasida keng qo'llaniladi. Multimedia vositalari orqali o'quvchilar nafaqat passiv o'quvchi sifatida, balki faol ishtirokchi sifatida qatnashishlari mumkin. Masalan, o'qigan kitob haqida video tahlil yozish kabi topshiriqlar o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Raqamli hikoya yaratish usuli orqali o'quvchilar o'qigan asarlar asosida animatsiyali taqdimotlar, mini-filmlar yoki audio hikoyalar yaratishlari mumkin. Bu jarayon nafaqat mutolaa madaniyatini, balki ijodiy qobiliyatlarni ham rivojlantiradi. O'zbekiston maktablarida bunday loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Lekin imkoniyatlar kengaygani bilan multimediadan foydalanishda bir qancha muammolarga ham duch kelmoqdamiz. Multimedia vositalaridan samarali foydalanish uchun o'qituvchi ham, o'quvchi ham raqamli savodxonlikka ega bo'lishi kerak. Ammo mamlakatimizda ko'plab pedagoglarda bu ko'nikmalar yetarli darajada

rivojlanmagan.

O'quvchilar orasida ham raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari notekis. Ba'zi o'quvchilar gadjetlardan faqat o'yin va ko'ngilochar maqsadlarda foydalansa, ularni ta'lim va mutolaa maqsadlariga yo'naltirish muhim pedagogik vazifaga aylanadi.

Bundan tashqari, multimedia vositalarining chalg'ituvchi ta'siri ham e'tiborga olinishi kerak. Ijtimoiy tarmoqlar, o'yinlar va boshqa boshqalar o'quvchini asosiy o'qish maqsadidan chalg'itib qo'yishi mumkin. Bu muammoni hal etish uchun maxsus "o'qish rejimi" ilovalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

4.Darsda multimedia vositalarini qo'llash metodikasi

O'qituvchi multimedia vositalarini darsga to'g'ri integratsiya qilishi uchun quyidagi bosqichlarni amal qilish tavsiya etiladi:

Birinchi bosqich	Maqsadni aniqlash: multimedia vositasi qanday pedagogik maqsadni ko'zlaydi? Motivatsiyami, tushuntirishmi, yoki baholashmi?
Ikkinchi bosqich	Vosita tanlash: maqsadga mos multimedia vositasini tanlash.
Uchinchi bosqich	Tayyorgarlik: texnik imkoniyatlarni tekshirish va zaxira variantlarni ko'rish.
To'rtinchi bosqich	Multimedia vositasini darsning mantiqiy qismida qo'llash
Beshinchi bosqich	Baholash: o'quvchilar qanday o'zlashtirganligi ustida fikr yuritish.

Adabiyot darslarida quyidagi usullardan foydalanish mumkin: dars boshida muallif hayotiga oid qisqa video yoki slaydlar ko'rsatish, asarning muhim sahnalarini audio formatda tinglash, interaktiv xarita orqali asar qahramonlari sayohatini kuzatish.

Multimedia vositalari an'anaviy kitob o'qishni almashtirish emas, balki uni boyitish va to'ldirish uchun xizmat qilishi kerak. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qog'oz kitobdan o'qish qat'iy bilimlarni chuqurroq mustahkamlashda afzallik kasb etadi. Shuning uchun ideal yondashuv — multimedia va an'anaviy kitobning uyg'un

kombinatsiyasidan iborat. O'qituvchi har haftada ma'lum miqdordagi qog'oz kitob o'qishni shart qilib qo'yishi, bunda ham multimedia bilan qo'llab-quvvatlashi optimal yondashuv hisoblanadi. Masalan, haftalik 2 soat qog'oz kitob o'qish va 1 soat shu kitob bo'yicha multimedia materiallar bilan ishlash jadvali samarali natija beradi. O'zbekiston ta'lim tizimida multimedia vositalarini mutolaa madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirish bo'yicha bir qator muvaffaqiyatli tajribalar to'plangan. Masalan, Namangan davlat texnika universiteti 2-son akademik litseyida amalga oshirilgan tajriba-sinov dasturlari shuni ko'rsatdiki, multimedia vositalarini muntazam qo'llagan guruhlar kitob o'qish faolligini 45% ga oshirgan.. Bu tajriba keyinchalik o'zining samarasini beradi degan umiddaman.

Xulosa

Multimedia vositalaridan foydalanib mutolaa madaniyatini rivojlantirish — bu zamonaviy ta'limning zaruriy talabidir. Bugungi o'quvchi raqamli muhitda o'sib kelayotgan avlodga mansub bo'lib, ularni kitob o'qishga undash uchun ham raqamli vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Multimedia vositalari motivatsiyani oshiradi, individual yondashuvni ta'minlaydi, tanqidiy tafakkurni rivojlantiradi va o'qish jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

Biroq multimedia vositalari an'anaviy kitob o'qishni to'liq almashtira olmaydi. An'anaviy va raqamli formatlarning uyg'unligini ta'minlash, texnologik to'siqlarni bartaraf etish, o'qituvchilar va o'quvchilar raqamli savodxonligini oshirish — bu sohadagi asosiy vazifalar hisoblanadi.

O'zbekistonda ta'lim islohotlari doirasida multimedia vositalarini maktab va oliy ta'lim muassasalarida joriy etish jadal davom etmoqda. Kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalari mutolaa madaniyatini shakllantirishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi. O'quvchi kitob qahramonlari bilan virtual dunyoda tanishishi, o'sha muhitda asarning manzarasini his qilishi, sun'iy intellekt yordamida o'zi uchun individual o'qish rejaları tuzishi — bular yaqin kelajakda amalga oshirilishi kutilayotgan imkoniyatlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh. M. Raqamli ta'lim istiqbollari. Ma'ruza. -Toshkent: Akademnashr,2023
2. Avloniy, A Turkiy guliston yoxud axloq . -Toshkent: O'qituvchi 1992
3. Xoliqov, A. O'zbek maktablarida raqamli ta'lim: muammolar va istiqbollar. Pedagogika jurnali, 2021 №3, 45–52.
4. Safo Matchon. Adabiy ta'lim va mutolaa madaniyati.-Toshkent: Bayoz, 2023.
5. Sobirova. M O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi.- Namangan:Arjumand Media, 2023
6. Kambarova. S. I. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil mutolaa madaniyatini shakllantirish texnologiyasi.Ped.fan.bo'y.fals.dok.(PdD)...dis.-Samarqand, 2019 .
7. O'zbek tilining izohli lug'ati.2-jild.-Toshkent:"O'ME" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.